

HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR TARBIYASINING TARKIBIY QISMIDIR

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Harbiy ta'lif fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola yoshlar umumiy tarbiyasining tarkibiy qismidan biri bo'lgan Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi haqida va Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali istiqlolni himoyalash, uni qadrlash, ulug'lash va unga xizmat qilish kabi g'oyalalar ongimizga, aqidamizga aylansagina, bizni tanlagan yo'llimizdan hech qanday kuch qaytarolmasligi, qaddimizni bukolmasligi va bunda tarbiyaning o'rni muhimligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar

Tarbiya, ruhiy, axloqiy, shaxs, istiqlolni himoyalash, Vatan, Konstitutsiyamiz, vatanparvar, himoya, pedagogik, fuqarolarining farovonligini, millatsevar, insonparvarlikning, ta'lif, milliy istiqlol mafkurasi, Qurolli Kuchlarimiz, tarbiyalashi kerak.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.

Tarbiya atamasi pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lif va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lif va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lif bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lif va ma'lumot olish jarayonida shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi.

«Vatan», «Vatanparvarlik» deganda biz nimani tushunamiz?

«Vatan»-bu ming yillar mobaynida sayqallanib, kishilar ruhiga ilhom beruvchi, mard o'g'lolarni jasoratga, kerak bo'lsa ona-zamin uchun jonlarni fido etishga undovchi muqaddas bir tuyg'udir.

«Vatan»-bu bizning oila, uyimiz, yashab turgan mahallamiz, qishlog'-u shahrimiz va, albatta, bu Ona O'zbekistonimizdir.

Shu o'rinda, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning -O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 3-sessiyasida so'zlagan nutqidan quyidagi so'zlarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqli: «Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustuvor bo'lmog'i kerak. Milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak».

Bu muqaddas g'oyalar, millati va etiqodidan qatiynazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i, har birimiz uchun eng katta tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, haqiqiy iymonga aylanishi kerak».

Istiqlolni himoyalash, uni qadrlash, ulug'lash va unga xizmat qilish milliy ongimizga, aqidamizga aylansagina, bizni tanlagan yo'limizdan hech qanday kuch qaytarolmaydi, qaddimizni bukolmaydi.

Davlat taraqqiyotga intilar ekan, u eng avvalo o'z fuqarolarining farovonligini ta'minlashi, ularning huquq va erkinliklarini qonunan belgilashi, jamiyat orasida, ijtimoiy munosabatlarda muayyan tartib o'rnatishi kerak. Bu qonun-qoidalarni esa barcha birdek hurmat qilishi va ularga amal qilishi lozim. Shundagina jamiyatda osoyishtalik hamda yurtda tinchlik bo'ladi. Yurtda tinchlik hukm sursa, bu zamindagi insonlar xotirjam yashasalar, ana shu baxtdir.

Konstitutsiyamizning 64-moddasida «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir...» deb belgilangan. Darhaqiqat, o'g'ilmi, qizmi shu yurt farzandlari bepoyon yurtimiz xizmatiga doim shay bo'lishimiz lozim. Zero, kelajak poydevorlari bo'lgan biz yoshlarga Prezidentimizning umidlari katta. Biz mana shu ishonchni to'la oqlashimiz, qolaversa, Ozod va Obod yurtimizni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz kerak.

Bu buyuk g'oyalar har birimizning qonimizga, qalbimizga singib, kelajak avlodlarga muqaddas boylik -muqaddas meros bo'lib o'tishi kerak.

Bunday g'oyalar bizlarga «Vatanparvarlik» so'zi qanday mazmunga, mohiyatga ega ekanligini, «Vatanparvar» qanday bo'lishi kerakligini to'la-to'kis ochib beradi.

Biz «Vatanparvar», «Millatsevar» degan so'zlarni eshitganimizda beixtiyor ko'z oldimizda buyuk ajdodlarimiz bo'lmish Shiroq, To'maris, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi, Namozbotir va buyuk sohibqiron Amir Temur qiyofalari gavdalanadi.

Biz ham ular singari Vatan uchun, o'zbek xalqi uchun munosib avlod bo'lishga harakat qilamiz.

Yaqin o'tmishimizda, sho'rolar hukumati vaqtida yashab o'tgan millatimizning asil o'g'lonlari Usmon Nosir, Fitrat, Cho'lpon va boshqa buyuk siymolar oldida bosh egamiz. Ularning vatanparvarligi, jasurligi, o'zbek xalqining yorqin kelajagi uchun jonlarini fido etganliklari, ularni millat ravnaqi uchun yashab, kurashib o'tgan hayotlari biz yosh avlod uchun bir hayot maktabi - vatanparvarlik maktabi bo'lib qoladi.

Mustaqillik, mustaqil suveren davlatning tuzilishi -bu har bir xalqning asriy orzusi -umidlarining, muqaddas maqsadlarining ro'yobga chiqishidir.O'zbekiston xalqi 1991 yil 31 avgustda o'zining davlat mustaqilligini e'lon qildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to'la huquqli, suveren davlat O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1991 yil 1 sentyabrni Mustaqillik kuni deb e'lon qildi. Shu kundan boshlab biz Vatan degan tuyg'uni to'la-to'kis his etdik.

Xalqimizning mustaqil Vatan uchun fidokorona kurashlari ro'yobga chiqib, biz o'z Ona Vatanimizga, til-u dinimizga ega bo'ldik.

Har bir avlod elyurtining tarixini va obro'sini, o'zining farzandlik muhabbatini va e'tiqodi, sadoqati va bunyodkorligi, matonati va mardligi bilan barpo etadi. Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati, manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha asrab-avaylab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashnihg oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun belgilash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir.

Milliy istiqlol mafkurasi -O'zbekistonning mustaqillikka erishish haqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, tarixiy, falsafiy, badiiy va diniy qarashlar majmui, xalqni

kelajakka ishonch, e'tiqod ruvida tarbiyalovchi g'oyaviy qurol, barcha toifa kishilarni shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy omil hisoblanadi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, ruhiyatiga, tiliga, diniy mos g'oyalar asosida odamlar ongiga kelajakka ishonch, mehr-muhabbat, insof, sabr-toqat,adolat, ma'rifat tuyg'ularini singdirish;

milliy istiqlol mafkurasi orqali xalqimizda o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatida, ilg'or davlatlar orasida teng huquqli va munosib o'rin egallashga intilish hissini tarbiyalash;

sog'lom, ma'naviy boy, komil avlodni shakllantirish.

Milliy istiqlol mafkurasining negizini vatanparvarlik, erkinlik, milliy iftixor, insonparvarlik, baynalminallik kabi xususiyatlar tashkil etadi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, o'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-qudrat manbai, ilmiy asos, bu milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi shart.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgan dastlabki kunlardan boshlab, bu masalaga alohida etibor berilib kelinmoqda. Milliy mafkuraning hayotimizdagi o'rnini belgilash, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, mafkuraviy tarbiyaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish, shu asosda jamiyatimizda ijtimoiy fikrni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan ishlardan barcha xabardor.

Zero, davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat, avvalo, aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozim. O'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi muqarrar.

Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrlarni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayrat shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Bizning bugungi eng buyuk vazifamiz va muqaddas burchimiz -O'zbekiston tarixidan o'zimizga munosib sahifa ochish va uni avlodlarimiz uchun ibrat bo'ladigan oliyjanob va savobli ishlar bilan to'ldirishdir.

Mana shu buyuk maqsadlardan kelib chiqqan holda bizlar ham o'z oldimizga asosiy vazifalarni belgilab olishimiz kerak. Bizlarning, ya'ni bo'lajak harbiy talim o'qituvchilarinig, asosiy vazifamiz -mana shu mustaqil Vatanni jon-jonidan sevuvchi, uning ravnaqi va ozodligi, xalqi uchun jasoratga, kerak bo'lsa jonini fido etishga tayyor bo'lgan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan mard o'g'lonlarni, o'zbek vatanparvarlarini tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Bu tarbiya, albatta, umumiy tarbiyani axloqiy, mehnat, estetik, ma'naviy, jismoniy turlari bilan uzviy bog'liqlikda olib borilishi kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan tarbiya turlari orasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi muhim o'rinni egallaydi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi Yoshlarni Ona-Vatanga, uning shonli tarixiga, tinchlikparvar va bunyodkor xalqiga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalashi kerak.

Chaqiriqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlarida, harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa tadbirlarida o'quvchi Yoshlar Qurolli Kuchlardagi bo'lajak xizmatlari va Vatanimiz himoyasi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtiradilar. Ular bu mashg'ulotlar va tadbirlar davomida harbiy ish va xizmat asoslarida dastlabki ma'lumotlarni oladilar. Yoshlar Qurolli Kuchlarimiz tarixini, uning bugungi kundagi Vatanimiz mustaqilligini himoya qilishdagi faoliyati, Qurolli Kuchlar turlari va ularning vazifalari, Qurolli Kuchlardagi xizmat qilish tartiblarni va boshqa ko'p zarurbo'lgan bilimlarni chuqur o'rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni, T, 2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiysi, T, 2023y.
3. O'zbekiston Respublikasining Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha Nizomi, T, 2023 y.
- 4 SH.Tilavoldiyevning "Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari" darslik Farg'ona 2023y
5. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov «Vatan tuyg'usi» T. 1996 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining «Vatanparvar» gazetasi.